

AUDITDA MUHIMLIK VA AUDIT RISKINI TAKOMILLASHTIRISH

*Sidiqov Feruz Muxammadshodiyevich
O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: maqolada audit va uning ahamiyati, auditda muhimlik darajasini aniqlash, auditda risk tushunchasi va uni turlari, audit jarayonida muhimlilik va audit riskini aniqlashdagi muammolar va uning yechimiga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Korxonalarda auditorlik tekshiruvida muhimlik va risklarni aniqlash tartibini takomillashtirish asosida auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, uning samarali dasturini ishlab chiqish, auditni o'tkazish, natijalarini rasmiylashtirish, auditorlik hisobotlarini tuzish, audit xulosasini shakllantirish, O'zbekistonda auditorlik faoliyatini auditning xalqaro standartlari (AXS) ga muvofiqlashtirish hamda yakunida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: audit, muhimlik, risk, aniqlanmaslik riski, audit rejasi, audit dasturi, audit hisoboti, audit hulosasi, tavakkalchilik riski.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli Farmonida aktsiyadorlik jamiyatlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, zamon talablari va xalqaro normalar hamda standartlarga muvofiq holda amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonun hujjatlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilish, shu jumladan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va xalqaro audit standartlariga o'tish vazifasi qo'yilgan.

Tashqi audit jarayonida qo'llaniladigan standartlar va ularning xalqaro darajaga chiqishda katta ahamiyatga ega va ular asosida amalga oshirilgan auditorlik tekshiruvlari moliyaviy faoliyat auditni va moliyaviy hisobotlar auditni chet ellik investorlar va foydalanuvchilar uchun asos bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining milliy standartlari ana shu xalqaro audit standartlari asosida ishlab chiqilgan va ushbu ishlar davom etirilmoqda. Huquqiy nuqtai nazardan hujjatlar asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan yoki tegishli vazirlig va qo'mitalar tomonidan tavsiya sifatida ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin. Auditorlik tashkilotlarining ichki standartlariga qo'yilgan talablar asosida har bir auditorlik tashkiloti tomonidan o'zida ishlab chiqilgan ishchi

standartlar va ayrim auditorlar tegishli bo'linmalarni tekshirish jarayonida qo'llaniladigan ishchi standartlar qo'shilgan.

Auditda xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining ishonchlilikiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan holatlar muhim holatlar deb tan olinadi. Barcha muhim munosabatlarda moliyaviy hisobotning ishonchliligi deganda, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari aniqligining shunday bir darajasi tushuniladiki, bunda ushbu hisobotdan malakali foydalanuvchi bu asosida to‘g‘ri xulosalar chiqarishga va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga qodir bo‘ladi. Axborotning muhimliligi - bu uning xususiyati bo‘lib, u mazkur axborotdan oqilona foydalanuvchining qarorlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Muhimlik darajasi deganda, moliyaviy hisobot buzilishining chegaraviy belgisi tushuniladi, undan boshlab ushbu hisobotning malakali foydalanuvchisi uning asosida to‘g‘ri xulosalar chiqarish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lmay qoladi.

Muhimlik darajasining mutlaq ahamiyatini aniqlaganda, auditor xo'jalik yurituvchi subyektning audit qilinadigan hisobotining ishonchliligin tavsiflaydigan eng muhim ko'rsatkichlarni asos sifatida qabul qilishi kerak, bundan keyin ular moliyaviy hisobotning bazaviy ko'rsatkichlari deb nomlanadigan xisobotni ishonchligini tavsiflaydigan eng muxim ko'rsatkichlarni asos sifatida qabul qilishi kerak.

Auditor quyidagi holatlarda muhimlilikni ko'rib chiqishi kerak:

auditorlik tartib-taomillarining tabiat, vaqt va batafsilligini belgilashda;
buzilishlar ta'sirini baholashda.

Auditni rejorashtirishda auditor qanday harakatlar va operatsiyalar moliyaviy hisobotda muhim buzilishlarga olib kelishini ko'rib chiqadi. Alovida schyotlar bo'yicha qoldiqlarga va bitim turlariga nisbatan muhimlilikni auditorlik baholash, auditorga qanday masalalar va qanday moddalarni o'rganishi, qanday tanlashdan foydalanishi va qanday tahliliy tartib-taomillarni o'tkazishi bo'yicha qarorlar qabul qilishiga yordam beradi. Bu hol auditorga umumiy auditorlik riskini maqbul bo'lgan past darajagacha kamaytirishga yordam beradi.

Auditorlik riskining darajasi bilan muhimlilik o'rtaida teskari aloqa mavjud: muhimlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, auditorlik riski shuncha past bo'ladi va aksincha.

Agarda auditorlik tartib-taomillari rejorashtirilganidan keyin auditor muhimlilikning maqbul darajasini past deb qaror qabul qilsa, u holda auditorlik riski ko'tariladi. Auditor buni quyidagi yo'llar bilan aniqlashi kerak bo'ladi:

- imkoni bo'lganda nazoratning chuqurlashtirilgan yoki qo'shimcha testlarni o'tkazish yo'li bilan pasaytirilgan darajani saqlash orqali nazorat riskining baholanayotgan darajasini pasaytirish,;

- mustaqil (asosiy) tartib-taomillar darajasi, vaqt va xarakterini modifikatsiyalash yo‘li bilan aniqlamaslik riskini kamaytirish orqali.

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, ajralmas riskning darajasi doimiy bo‘ladi va ular faqat, tekshirishning umumiy rejasini tayyorlash davomida hisobga olinmagan, obyektiv ravishda mavjud faktlar aniqlangan taqdirdagina o‘zgarishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Biz maqolada avvalo auditga berilgan ta’riflar va auditda muhimlik hamda risk darajalarini aniqlash bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar va standartlarda, iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan turli yondoshuvlar keltirib o‘tiladi.

“Auditor - auditorning malaka sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs; auditorlik faoliyati - auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati” (Qonun, 2021).

“Audit – bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisob va u bilan bog‘liq moliyaviy axborotlarini me‘yoriy hujjatlarga muvofiqlik darajasi to‘g‘risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir”. (Avlakulov, 2018).

“Auditorlik riski – moliyaviy hisobotda muhim buzib ko‘rsatishlar mavjud bo‘lgan holda auditor tomonidan unnga muvofiq bo‘lmasa auditorlik xulosasini taqdim etishdir deb ta‘rif bergan”. (Messier, 2003).

“Auditorlik riski – moliyaviy hisobotda haqiqatda muhim buzib ko‘rsatishlar mavjud bo‘lganda, moliyaviy hisobot to‘g‘ri va ob‘ektiv tuzilganligi to‘g‘risidagi auditorning ijobjiy fikri(xulosasi) deb e‘tirof etishgan”. (Arens va J.LobbekArens, 2000).

“Auditorlik riski - auditor tomonidan sub‘ektiv ravishda belgilanadigan, auditorlik tekshiruvi yakunlari bo‘yicha moliyaviy hisobot uning ishonchliligi tasdiqlanganidan keyin aniqlanmagan jiddiy buzilishlarni o‘z ichiga olishi mumkinligini e‘tirof etish yoki aslida bunday buzilishlar moliyaviy hisobotda bo‘lmadasa, unda jiddiy buzilishlar mavjudligini e‘tirof etish ehtimolidir”. (Standart, 1998).

“Auditda xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining ishonchliligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan holatlar muhim holatlar deb tan olinadi” (Standart, 1998).

“Auditorlik tavakkalchiligi (audit riski) - bu xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida uning ishonchliligini tasdiqlaganidan keyin aniqlanmagan moddiy xatolar va yoki buzilishlar bo‘lishi yoki moliyaviy hisobotda bunday buzilishlar mavjud bo‘lmasa, uning moddiy buzilishlari mavjudligini tan olish ehtimoli”. (Consultant, 2024).

“Auditorlik riski (xavfi) - bu auditorlik tekshiruvi paytida yuzaga keladigan haqiqiy ma’lumotlardan buxgalteriya hisobotidagi mumkin bo‘lgan muhim noaniqliklar va og‘ishlarni aniqlamaslik ehtimoli”. (YECU 15 1/9).

"Moliyaviy hisobot moddiy jihatdan buzilganda auditor noto‘g‘ri auditorlik xulosasini bildirish xavfi." Auditorlik xavfi-bu moddiy noto‘g‘ri ma'lumot va aniqlanmaslik xavfining hosilasi". (AASB, 2023).

“Auditor xatarlarga javoban auditorlik protseduralarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun firibgarlik yoki xato natijasida moliyaviy hisobotdagi moddiy noto‘g‘ri baholash xavfini aniqlashi, aniqlashi va baholashi kerak”. (Altuxova, 2016).

“Auditda muhimlik - bu qo‘llaniladigan audit protseduralari xo‘jalik yurituvchi subektning moliyaviy hisobotlarida xatolik mavjudligini aniqlash va ularning foydalanuvchilar tomonidan tegishli qarorlarni qabul qilishga ta’sirini baholash imkonini beradi”. (Consultant, 2024).

“Iqtisodiy axborotning muhimligi uning sifati bo‘lib, bu ma'lumotlardan vakolatli foydalanuvchining boshqaruv, iqtisodiy va boshqa qarorlariga ta’sir o‘tkazishga imkon beradi. Belgilangan muhimlik darajasidan oshib ketadigan ma'lumotlarning buzilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muhimlik darajasi miqdoriy ko‘rsatkichdir”. (Assistantus, 2023).

Tahlil va natijalar.

Muhimlik – bu hisobot ko‘rsatkichlarining shunday kattaligiki (yoki sifati), ularni hisobotda aks ettirilmasligi yoki buzib ko‘rsatilishi ana shu hisobotdan foydalanuvchi mutaxassislarni noto‘g‘ri qaror qabul qilishiga olib keladi.

Muhimlikning nazariy asoslariga to‘xtaladigan bo‘lsak, muhimlik – MHXS lari asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobot tuzishda unga zarur bo‘ladigan axborotlarning sifat xususiyatini ifodalaydi. MHXS bo‘yicha kontseptual asoslarida moliyaviy hisobotni tayyorlashda axborotlarning sifatini ta‘minlashda quyidagi xususiyatlari ham e‘tiborga olinishi lozim:

- tushunarlik (understandability);
- ishonchlilik (reliability);
- taqqoslanuvchanlik (comparability).

“Muhimlik” tushunchasidan foydalanish va uni qo‘llash sharti MHXSlar asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobotlarning

shakllanishi talaygina xo‘jalik jarayonlaridan(operatsiyalaridan) tashkil topishi bilan bog’liqidir.

“Muhimlik” tushunchasini tom ma’noda talqin etadigan bo‘lsak, so‘z birinchi navbatda moliyaviy hisobotning katta qiymatga ega bo‘lgan elementlari xaqida boradi. Masalan, debitorlik qarzlari balans jami summasining 30% ni tashkil etsa, uni hisobotda noto‘g‘ri aks ettirilishi oqibatida undan foydalanuvchilarni qarorlar qabul qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, hisobot moddalarining muhimligi faqat ularning qiymatiga emas, balki iqtisodiy mohiyatiga ham bog’liqidir. Masalan, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt yangi faoliyat turini taqdim etishi natijasida yuzaga keladigan risklar

va shart sharoitlar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning qarorlariga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Shunday qilib hisobot moddalarining muhimligini belgilashga quyidagi omillar ta'sir qilishini inobatga olinishi lozim deb o'ylaymiz:

- Hisobot moddalarining qiymati;
- Hisobot moddalarining iqtisodiy mohiyati;
- Ikkita omil kombinatsiyasi.

Moliyaviy hisobot moddalarining muhimligini belgilashda ularning miqdor va sifat xususiyatlari ham muhim rol o'ynashi mumkin. Masalan, tovar moddiy zahiralarni hajm jihatdan (puldagi ifodasi) va uning tarkibiga kiruvchi elementlari "xom ashyo", "yarim tayyor mahsulotlar", "tayyor mahsulotlar" (sifat xususiyati) to'g'risidagi axborotlar hisobotda aks etishi lozim. Xalqaro standartlarga asosan moliyaviy hisobotda aks ettirilgan ma'lumot undan foydalanuchilar uchun muhim deb qaralsa, moliyaviy hisobot shakliga shu muhim hisoblangan ma'lumot orqali kritilgan o'zgartirish hech qanday huquqiy jihatdan ta'sirga uchramaydi.

Moliyaviy hisobotning muhim moddalariga nisbatan MHXSlari qo'llaniladi. Bizning bunday xulosaga kelishimizga sabab "Hisob siyosati, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar" nomli Moliyaviy hisobot xalqaro standartida moliyaviy hisobotga ta'sir etish darajasi ahamiyatsiz bo'lgan ko'rsatkichlar hisob siyosatida aks etmaydi, deb e'tirof etilganligidadir. [4]

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda muhimlik kontseptsiyasini quyidagi yo'nalishlarda shakllantirish mumkin:

moliyaviy hisobotda xususiyati jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan muhim moddalar (ko'rstkichlar) alohida-alohida aks etishi lozim;

muhim bo'lмаган moddalarni uning xususiyati va funktsiyalaridan kelib chiqqan holda umumlashtirish;

moliyaviy hisobotda aks etmaydigan ayrim ko'rsatkichlar hisobotga ilova sifatida keltiriladigan hujjatlarda ochib berilish lozim.

Shuni yodda tutish lozimki, muhimlik mutloq va nisbiy miqdorlarda aniqlanishi mumkin. Muhimlikni nisbiy miqdorlarda aniqlash moliyaviy hisobot moddalarining sifat xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, xarajatlarni hisobotda aks ettirish jarayonida yo'l qo'yilgan 1 mln. so'mlik xato, foydasi 1 mlrd. so'mni tashkil etuvchi sub'ekt uchun muhim emas, lekin foydasi 3 mln. so'mni tashkil etuvchi sub'ekt uchun muhimdir. Xato haqida gap ketganda, sub'ekt xodimlari tomonidan u bilmasdan yoki qasddan sodir etilishi mumkin. Ikkinchchi holat auditorlar tomonidan o'rganilganda hisobotdagi xatoliklar evaziga auditorlik riskini ortishi natijasida muhimlik darajasi kamaytiriladi (ya'ni o'rganilayotgan moddaning iqtisodiy mohiyatiga qaraladi).

Yana bir misol keltirsak, sodir etilgan kichkina xatolik zarar bilan chiqqan sub'ektni foyda bilan chiqishiga olib keldi. Sub'ekt yillik moliyaviy hisobotida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

Muhimlik darajasini aniqlash tartibi MHXSlariga nisbatan Auditning Xalqaro Standartlarida (AXS) kengroq yoritilgan. Xususan, 315-sonli “Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik sub'ektini va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholash”, 320-sonli “Auditni rejalarshirish va bajarishda muhimlik”, 450-sonli “Audit jarayonida aniqlangan buzib ko'rsatishlarni baholash”, 600-sonli “Maxsus ko'rib chiqishlar – guruh moliyaviy hisobotlarining auditni (jumladan komponent auditorlari ishlari)” nomli Auditning Xalqaro Standartlarida yoritilgan.

Moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazishda auditorning umumiyligi maqsadlari moliyaviy hisobotda firibgarlik yoki xatoga yo'l qo'yilishi natijasida muhim buzib ko'rsatishlar bor-yo'qligi xususida auditorga moliyaviy hisobot barcha muhim jihatlarda moliyaviy hisobotni taqdim etishning qo'llaniladigan asosiga muvofiq tayyorlanganligi to'g'risida o'z fikrini bildirish; moliyaviy hisobot bo'yicha hisobot (xulosa) chiqarish va audit natijalariga muvofiq AXS talab etgan axborotni taqdim etish imkonini beradigan oqilona ishonch hosil qilishdan iborat.

320-sonli “Auditni rejalarshirish va bajarishda muhimlik” nomli AXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asoslari muhimlikni turli nuqtai nazardan muhokama qilishi mumkinligiga qaramay, umuman olganda ular quyidagilarni tushuntiradi:

Buzib ko'rsatishlar, shu jumladan tushirib qoldirishlar, agar ular o'z-o'zicha yoki boshqa buzib ko'rsatishlar bilan birga, oqilona mo'ljallarga ko'ra, foydalanuvchilarining moliyaviy hisobot asosida qabul qilingan iqtisodiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, muhim deb baholanadi;

Muhimlik to'g'risida mulohazalar yuzaga kelgan vaziyat nuqtai nazaridan chiqariladi va buzib ko'rsatish summasi yoki xususiyatiga yoinki buzib ko'rsatishning ham summasi, ham xususiyatiga bog'liq bo'ladi;

Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun muhim hisoblanadigan masalalar to'g'risida mulohazalar guruh sifatidagi foydalanuvchilarining moliyaviy axborotga bo'lgan umumiyligi ehtiyojlarini ko'rib chiqishga asoslanadi. Masalan, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita tomonidan qabul qilingan “Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish asosi”da ko'rsatib o'tilishicha, tijorat tashkilotlarida, investorlarning ehtiyojlarini qondiradigan moliyaviy hisobotni taqdim etish boshqa foydalanuvchilar aksariyat qismining talablarini ham qondirishi mumkin, chunki investorlar mazkur sub'ekt uchun riskli kapital etkazib beruvchilar hisoblanadi. Auditor tomonidan muhimlik darajasini belgilash professional mulohaza masalasi hisoblanadi va moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarining moliyaviy axborotga bo'lgan ehtiyojlarini auditor qanday

tushunishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu kontekstda auditor foydalanuvchilar xususida quyidagilarni taxmin qilishi uchun asoslar mavjud:

ular biznes, iqtisodiy faoliyat va buxgalteriya hisobi sohasida bilimga ega, shuningdek moliyaviy hisobotda taqdim etilgan axborotni oqilona darajada qunt bilan o'rghanishga tayyor;

ular moliyaviy hisobot muhimlik darajasidan kelib chiqib tayyorlangani, taqdim etilgani va audit qilinayotganini tushunadi;

ular hisoblab chiqilgan baholardan foydalanish, mulohaza yuritish va bo'lg'usi voqealarni ko'rib chiqishga asoslangan summalarining baholanishi noaniq ekanini tan oladi;

moliyaviy hisobotda ifodalangan axborot asosida oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qiladi.

Auditorlar tomonidan muhimlik darajasini belgilash professional mulohaza chiqarishni nazarda tutadi. Moliyaviy hisobotlar uchun muhimlik darajasini belgilashda sanoq boshi sifatida tanlangan mo'ljalga nisbatan ko'pincha foiz hisobi qo'llaniladi. Tegishli mo'ljalni belgilashga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar orasida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

moliyaviy hisobot elementlari (masalan, aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar, xarajatlar);

muayyan tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlaridan foydalanuvchining asosiy e'tibori qaratilgan moddalar bormi (masalan, faoliyatning moliyaviy natijalarini baholash maqsadida foydalanuvchilar foyda, daromad, yoki sof aktivlarga alohida e'tiborni qaratishlari mumkin);

agar tadbirkorlik sub'ektining faoliyat (hayot) tsikli tugallanmagan bo'lsa, tadbirkorlik sub'ektining xususiyati, shuningdek u ishlayotgan soha va iqtisodiy muhit;

tadbirkorlik sub'ekti mulkining tarkibiy tuzilishi va uni moliyalashtirish usuli (masalan, tadbirkorlik sub'ekti o'z kapitali hisobidan emas, balki faqat qarzga olingan kapital hisobidan moliyalashtirilsa, foydalanuvchilar asosiy e'tiborni tadbirkorlik sub'ektining daromadiga emas, balki aktivlari va ularga bo'lgan da'volarga qaratishlari mumkin).

Muhimlik darajasining mutlaq qiymatini aniqlashda auditor xo'jalik yurituvchi subyektning audit qilinadigan, moliyaviy hisobotning bazaviy ko'rsatkichlari deb nomlanadigan hisoboti ishonchlilagini tavsiflaydigan eng muhim ko'rsatkichlarni asos sifatida qabul qilishi kerak.

Muhimlik darajasini hisob-kitob qilish uchun tavsiya qilanayotgan moliyaviy hisobotning bazaviy ko'rsatkichlariga soliq to'lagunga qadar foyda, sof tushum hajmi (QQSsiz), balans valyutasi, xususiy kapital, umumiy umumiy xarajatlardir. Bunda muhimlik darajasini aniqlashda quyidagi mezonlari belgilangan:

soliq to'lagunga qadar foyda – 5%;

sof tushum hajmi (QQSsiz) – 2%;
 balans valyutasi – 2%;
 xususiy kapital – 10%;
 tashkilotning umumiy xarajatlari – 2%.

Auditor muhimlilik darajasini hisoblashda moliyaviy hisobotning bazaviy ko'rsatkichlari sifatida joriy yilning ko'rsatkichlari, joriy hisobot davrining yoki o'tgan davrning o'rtacha ko'rsatkichlarini, hisobot davrining prognoz ko'rsatkichlarini yoxud har qanday hisob-kitoblar taomillarini qo'llashi mumkin.

Auditor tegishli auditorlik tekshiruvi uchun yagona muhimlilik darajasini yoki buxgalteriya hisobining schyotlari, balans moddalari, hisobot ko'rsatkichlarini baholash uchun turli xil muhimlik darajasini belgilashi mumkin. Auditor o'zining profesional kompetentligidan kelib chiqqan holda tavsiya qilinayotgan usullaridan birini tanlab muhimlik darajasini aniqlaydi.

Riskni baholashning ball modelida sifat xususiyatlar miqdor ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Masalan, auditorlik riskining quyi darajasi – 1 ball, o'rta darajasi – 3 ball, yuqori darajasi - 5 ball qilib belgilash mumkin.

| Baholash modeli | Audit riski | Risk darajasi |
|-----------------|----------------------|-------------------------------|
| empirik | Ichki xo'jalik riski | Yuqori, shrta va quyi |
| extimollik | Nazorat riski | (0:1), (0:100%) |
| ballik | Aniqlanmaslik riski | Yuqori-5 ball O'rta-3 ball |

1-rasm. Auditorlik riskini baholashdagi yondoshuvlar.

To'g'ri (multiplikativ) modelda auditor professional mulohazasi asosida auditorlik riski komponentlarini baholab, umumiy auditorlik riskini aniqlaydi.

$$\text{UAR} = \text{IXR} * \text{NR} * \text{AR}$$

Бу ерда: UAR- umumiy auditorlik riski;

IXR-ichki xo'jalik riski; AR-aniqlanmaslik riski.

Olingan natija xalqaro amaliyotda qabul qilingan -5%lik ko'rsatkich bilan taqqoslanadi. Masalan, auditor ichki xo'jalik riskini - 60%, nazorat riskini-50% va aniqlanmaslik riski-20% qilib belgilasa, unda umumiy auditorlik riski 6% ($0,6 * 0,5 * 0,2$)ni tashkil etadi. Olingan natijani ijobjiy deb baholab bo'lmaydi, chunki 5%lik chegaradan yuqori. Demak, auditor auditorlik riskini maqbul chegaragacha kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rmog'i lozim.

Egri model umumiy auditorlik riskining komponentlaridan biri aniqlanmaslik riskini baholashni ko'zda tutadi. Bunda auditor ichki xo'jalik riskini, nazorat risikni baholab, multiplikativ model asosida aniqlanmaslik riski hisoblab topiladi.

$$AR = UAR / (IXR * NR)$$

Aniqlanmaslik riskini mohiyati shundan iboratki, auditor tomonidan auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonda muhim xato va kamchiliklarni aniqlay olmaslik ehtimolidir. Aniqlanmaslik riski auditorlik tekshiruvida bajaradigan ishlar ko'lami, tanlash ko'lamiga, sarflanadigan mehnat sarfi umuman auditorlik xizmati xaqi miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Risklarni baholashda ikki xil yondashuv mavjud: moddalar bo'yicha baholash va jarayonlar bo'yicha baholash.

Moddalar bo'yicha auditorlik riskini moliyaviy hisobot uchun umumiy yoki uning alohida moddalari bo'yicha aniqlanadi va baholanadi.

Auditorlik riskini baholashning jarayonli yondashuvi auditorlik tekshiruvidan o'tayotgan sub'ektning biznes-jarayonlarini o'rganish asosida amalga oshiriladi (tahlil yo'nalishi jarayonlardan-hisobotga qarab).

Yuqorida yondashuvlardan qay birini tanlash auditorni o'zi mustaqil belgilaydi. Lekin bu ikkita yondashuv turli mehnat sarfini talab etadi, ya'ni jarayonli yondashuv ko'p mehnat sarfini talab etganligi bois moddalar bo'yicha yondashuvdan keng foydalaniladi.

1-jadval.

Корхонада muhimlik darajasini balans aktiviga nisbatan taqsimlash

| AKTIV | ming so'mda | Sal moq, % | Muhimlik darjasи, ming so'mda |
|--|----------------|---------------|-------------------------------------|
| Asosiy vositalar | 28654 | 2 | 573,1 |
| Nomoddiy aktivlar | 2072 | 3 | 62,9 |
| Materiallar | 4374 | 5 | 218,6 |
| Xaridor va buyurtmachilar | 14507 | 4 | 5800,6 |
| | 6 | | |
| Kassadagi pul mablag'ları | 6861 | 2 | 137,2 |
| Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar | 3501 | 2 | 70,0 |
| Hisob-kitob schetidagi pul mablag'ları | 5078 | 2 | 101,5 |
| Jami | 19555 | | 6963.9 |
| | 9 | | |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, korxonaning aktivlardagi muhimlik darjasи eng yuqori daraja 5 foizga teng, bunda ishlab chiqaruvchi korxona bo'lganligi uchun materiallar tanlab olingan, natijada materiallarning jami summasiga nisbatan bu

218,6 ming so‘mni tashkil qilgan. Xaridorlar va buyurtmachilarining jami aktivlardagi ulushi ko‘p bo‘lsada, auditor tomonidan debitorlik qarzlarning undirilishi me’yoriy xolat sifatida qaralgan va buni muximlik darajasini 4 foizga teng deb olingan. Korxona aktivlari bo‘yicha muhimlik darajsi eng past ko‘rsatkich 2 foizni tashkil qiladi. Umumiy olganda jami aktivlarning qiymatiga nisbatan muhimlik darjasini o‘rtacha 3 foizni tashkil qilib bu jami aktivlar summasining 6963,9 ming so‘mni tashkil etadi.

2-jadval.

Корхонада muhimlik darajasini balans пассивлариغا nisbatan taqsimlash

| Passivlar | min g so‘mda | Sa lmoq, % | Muhimlik darjası, ming so‘mda |
|---|-----------------|---------------|-------------------------------------|
| Ustav kapitali | 100 01 | 4 | 400,0 |
| Qo‘shilgan kapital | 238 06 | 3 | 714,2 |
| O‘tgan yillar taqsimlanmagan foydasi | 326 31 | 5 | 1631,5 |
| Taqsimlanmagan foyda | 203 04 | 5 | 1015,2 |
| Mol yyetkazib beruvchilar va pudratchilar | 587 35 | 5 | 2936,8 |
| Majburiyatlar: | | | |
| Mehnatga xaq to‘lash bo‘yicha | 484 2 | 3 | 145,3 |
| Budjetdan tashqari fondlarga | 256 8 | 4 | 102,6 |
| Budget oldidagi | 217 34 | 4 | 869,4 |
| Olingan avanslar | 171 16 | 3 | 513,4 |
| Kelgusi davr xarajatlari | 338 7 | 3 | 101,5 |
| Boshqa qisqa muddatli majburiyailar | 435 | 3 | 13,0 |
| Jami | 195 559 | | 8442,9 |

Muximlik darjasini bo‘yicha auditor korxona balansining passiv ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori chegarani 5 foiz va quyi chegarani 3 foiz qilib belgilab olgan. Natijada yuqori chegaradagi passivlar sifatida taqsimlanmagan foyda (5 foiz yoki 1015,2 ming so‘m), mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar (5 foiz yoki 2936,8 ming so‘m)

bo‘lgan. Muhimlikning quyi chegarasi bo‘yicha auditor qo‘shilgan kapital (3 foiz yoki 714,2 ming so‘m), mehnatga haq to‘lash (145,3 ming so‘m), olingan avanslar (513,4 ming so‘m). kelgusi davr xarajatlari (101. 5 ming so‘m) hamda boshqa qisqa muddatli majburiyatlar (13,0 ming so‘m)ga teng bo‘lgan. Natijada balansning jami aktivlari (199559 ming so‘m)ga nisbatan muhimlik darajasi bo‘yicha aniqlangan summa 8442,9 ming so‘m yoki 4 foiz atrofida bo‘lgan.

Korxonaning balans ko‘rsatkichlari bo‘yicha audit tekshiruvidagi muhimlik darajasi o‘rtasida farq yuzaga kelgan. Bu aktivlar bo‘yicha 6963,9 ming so‘m va passivlar bo‘yicha 8442,9 ming so‘mga teng yoki aktivlarga nisbatan passiv ko‘rsatkichlarning muhimlik darajasi 1479 ming so‘mga ko‘p bo‘lgan. Bu qaysidir ma’noda passivlarni muhimlik darajasini yuqori bo‘lishi tabiiy albatta. Korxona kapitali va majburiyatları likvidlik va to‘lov qobiliyatiga bog‘liqdir.

3-jadval.

Muhimlik darajasini молиявий натижаларга nisbatan taqsimlash

| Ko‘rsatkichlar | mi ng so‘mda | Sal moq, % | Muhimlik darajasi, ming so‘mda |
|---|--------------------|---------------|--------------------------------------|
| Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum | 21 1565 | 5 | 10578,2 |
| Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi) | 18 8997 | 5 | 9449,7 |
| Yalpi foyda | 22 181 | 5 | 1109,1 |
| Sotish xarajatlari | 38 6 | 4 | 15,4 |
| Boshqa operatsion daromadlar | 11 856 | 3 | 355,7 |
| Boshqa operatsion xarajatlar | 45 98 | 3 | 137,9 |
| Asosiy faoliyatning foydasi | 29 441 | 5 | 1472,1 |
| Moliyaviy faoliyatdan daromadlar | 64 2 | 3 | 19,3 |
| Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar | 64 3 | 3 | 19,3 |
| Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi | 29 442 | 5 | 1472,0 |

| | | | |
|------------------------------|-----------|---|--------|
| Soliqqa tortilgungacha foyda | 29 442 | 5 | 1472,0 |
| Sof foyda | 20 306 | 5 | 1015,2 |

Korxonining moliyaviy natijalar ko'rsatkichi bo'yicha muhimlik darajasining yuqori chegarasida mahsulotlarni sotishdan tushum olingan (10578,2 ming so'm yoki 5 foiz) va quyi chegarsi sifatida esa, boshqa operatsiyaon daromadlar (355,7 ming so'm yoki 3 foiz), moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlari (19,3 ming so'm yoki 3 foiz) tanlangan. O'z navbatida sof foydaga tegishli bo'lgan muhimlik darjasini ham 5 foizni tashkil etadi, sababi, korxonaning rentabellik ko'rsatkichi 10 dan kam (9,5 foiz). Demak, auditor tomonidan muhimlikni belgilashda ko'proq tushum va sof foydaga nisbatan e'tiborni qaratgan.

Xulosa o'rnila shuni ta'kidlashimiz mumkinki, auditor butun faoliyatini moliyaviy hisobotning etarli ishonchlilagini ta'minlash bilan bir qatorda, muhimlikni anqlash jarayonida auditorlik riskini maqbul chegaragacha pasaytirishga qaratadi va auditorlik hulosasi uchun ma'lumotlarni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida xulosa qilish mumkinki, auditda muhimlik bu korxonalar faoliyatida to'g'ri nazorat va shaffoflikni ta'minlashning muhim vositasidir. Audit jarayonlari doirasida muhim vazifalardan biri muhimlikni aniqlashdir. Muhimlik tushunchasi ma'lumotlarning ahamiyatini yoki hisobotdan foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatolarni anglatadi.

Muhimlik darjasini tekshirilayotgan shaxsnинг hisobotidagi ruxsat etilgan maksimal xato sifatida tushuniladi, bu hisobot foydalanuvchisini o'zi qiziqtirgan ma'lumot haqida chalg'itmaydi, muhimlik darjasini aniqlashning quyidagi usullarini qo'llash maqsadga muvofiq:

birinchi, auditor professional (subyektiv) fikr asosida xatoning maqbul qiymati sifatida mutlaq qiymatni pul ko'rinishida olishi lozim;

ikkinchi, xato qiymati hisobot yili uchun tegishli ma'lumotlarning umumiy miqdoriga foiz sifatida aniqlanadi. Qoida tariqasida, buxgalteriya balansining har bir satri va daromadlar to'g'risidagi hisobot hisobot yili uchun ma'lumotlar sifatida olinadi.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan turli qarashlar va yondoshuvlar asosida quyidagi fikr bildirib o'tildi: "Muhimlik tushunchasi auditor tomonidan auditni rejalshtirish va o'tkazishda ham, aniqlangan noto'g'ri ma'lumotlarning auditga va tuzatilmagan noto'g'ri ma'lumotlarning, agar mavjud bo'lsa, moliyaviy hisobotga ta'sirini baholashda, shuningdek auditorlik xulosasida fikrni shakllantirishda qo'llaniladi".

Korxonalarda auditni riskka yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish, risklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni qo‘llash natijasida risklarning va ularning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Korxonalarda biznes jarayonlarning amalga oshirilishi doimo risk bilan bog‘liq bo‘ladi. Aslida tadbirkorlik faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri uning riskka asoslanishidir. Audit xizmati ham o‘z faoliyati davomida mazkur jihatlarni inobatga olishi zarur. Shu boisdan korxonalarda riskka yo‘naltirilgan auditni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Demak, audit amaliyotida xalqaro va ichki audit standartlarini qo‘llash zarurati tufayli auditning muhimligini baholash muammosi ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi. Muhimlikni baholash masalalarining amaliy ahamiyati har bir auditorlik firmasidan ichki audit standarti sifatida qabul qilinishi kerak bo‘lgan muhimlik bazasini tanlash, uning qiymatini hisoblash va mumkin bo‘lgan tuzatishlar uchun o‘z metodologiyasini ishlab chiqishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 25.02.2021-yildagi O‘RQ-677-sон “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 13.04.2016-yildagi O‘RQ-404-sон “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 06.05.2014 yyildagi O‘RQ-370-sон “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 18.01.2023-yildagi O‘RQ-814-sон “Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sон Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
6. Fayziyev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Kuziyev I.N., Avlokulov A.Z. Audit: Darslik -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2015y. – 430 b.
7. Tuychiyev A., Qo‘ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 620 b.
8. Kuziyev I., Tuychiyev A., Xojiyev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. “Iqtisod-Moliya”, 2019 g. – 421 str.”
9. Do‘s muratov R.D. Audit asoslari.-T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.- 612 s.
10. Audit. Darslik 1-jild. M.M.Tulaxodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmадjonov va boshq.-T.: NORMA.-2008.-320 b.
11. Arens A., Lobbek Dj. Audit. Per. s angl. pod red. Ya.V. Sokolova. - M.: Finansi i statistika, 2013. -560s.